

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
Г.М.Хошимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudoynazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Муртозоев	
Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Feryza	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Маҷитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони ҷомӣ.....	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



UO'K: 82.091:81'255.2:81(575.1)

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI O‘XSHATISHNING INGLIZCHA TARJIMALARDA AKS ETISH MASALALARI

ISSUES OF TRANSLATING SIMILARITIES IN THE NOVEL "THE PAST DAYS" INTO ENGLISH

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ОТНОШЕНИЯ СОПОСТАВЛЕНИЯ В РОМАНЕ "МИНУВШИЕ ДНИ" НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Karimov Marufjon 

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, PhD

Annotatsiya

O'xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o'xshashligiga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi.

Аннотация

Сравнение означает, что один объект или событие образно схожи по форме или содержанию при сравнении одного объекта или события с другим объектом или событием. Сравнения используются как один из древнейших визуальных инструментов для украшения нашей речи, особенно языка художественной литературы, для обеспечения ясности и образности.

Abstract

A simile means that one object or event is figuratively similar in form or content when comparing one object or event with another object or event. Similes are used as one of the oldest visual tools to decorate our speech, especially the language of fiction, to ensure clarity and imagery.

Kalit so'zlar: tarjimon, mashaqqat, tasvir, ifodalash, avtor, haqqoniy, so'z, asl nusxa, muvofiq, mag'iz, ma'no, aksincha, noaniq, mujmal, ekvivalentlik.

Ключевые слова: переводчик, усилие, образ, выражение, автор, подлинный, слово, оригинальный, соответствующий, ядро, значение, противоположный, неопределенный, общий, эквивалентность.

Key words: translator, effort, image, expression, author, authentic, word, original, corresponding, core, meaning, contrary, vague, general, equivalence.

KIRISH

Professsor G'.Salomovning tarjima amaliyotiga xos bunday muammolarni tahlil qilish borasida: "Tarjimon uchun so'z tanlashning mashaqqati yana ham ko'proq. Chunki u asarni o'z tiliga ag'darar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab so'zlar orasidan o'zi istaganlarini ishlata olmaydi... Tarjimon faqat avtor ifodalagan fikrni o'z tiliga haqqoniy qayta tiklash doirasida so'z tanlash erkinligiga ega. Agar tanlangan so'z asl nusxadagi so'zga muvofiq tushsa, o'sha so'zning mag'zida yashirinib yotgan ma'no bizning tilimizda tiriladi, aksincha, agar unga to'liq muvofiq bo'lmasa, fikrni noaniq va mujmal qilib qo'yishi mumkin"⁸⁶ - deb keltiradi. Ma'lum bo'ladiki, tarjimonning vazifasi, ta'bir joiz bo'lsa mahorati ham, tarjima jarayonida duch kelingan muammolarning eng ma'qbul yechimini topishida ko'rinadi. Tarjimon har bir detalni bir tildan ikkinchi bir tilga ko'chirayotganda, asliyatdagi ma'no va mazmuniga e'tibor qaratadi. Voqealarni tasavvur qilishga urinadi, go'yo uning ishtirokchisiga aylanadi. Shundagina voqealar tafsilotini asliyatdagidek qayta tiklaydi. K.Yermakovani ayblashdan mutlaqo yiroqmiz, aksincha, o'zbek romanini katta qiziqish hamda jiddiy e'tibor bilan tarjima qilgani uchun doim faxr tuyamiz. Mutarjimning tarjimada kamchilik va tushunarsizlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida astoydil harakat qilganini tarjima tahlil jarayonlarida amin bo'ldik.

⁸⁶ Саломов Г. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.166.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi⁸⁷ hind poetik - grammatik traktlarida o'xshatishlar poyetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsurdan tarkib topishi ta'kidlangan, ularni har bir turini romandan olingan parchalar orqali tahlilga tortamiz:

1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt. Masalan: *"Kumushbibi xomush edi. Bir narsa to'g'risida o'ylarmidi yoki bosh og'rig'isi kuchlikmidi, har holda namozshomgul kabi yopiq edi."* (O'tkan kunlar. 2009; 33) Mazkur parchada qo'llangan "namozshomgul kabi" birikmasi o'xshatish ifoda vositasi orqali yasalgan. Guldagi shomdan keyin yopilish sifati insonga nisbatan ko'chgan hamda ko'chma ma'no hosil qilib, "kayfiyati yo'qlik", "tushkunlik" mazmunini ifodalamoqda.

T.I. tarjimasida: *"But Kumushbibi was silent. She sat silently, as if her eyes were closed like a nightmare flower."* (T.I. 2017; 32) (Lekin Kumushbibi jim edi. Ko'zlari go'yoki qo'rqinchli guldek yumilgan holda jim o'tirardi) (K.M) tarzida beriladi.

Y.K. tarjimasida: *"Perhaps something was on her mind, or perhaps her headache had worsened; either way, she merely sat in silence, just like a Queen of the Night flower hanging its head in the day."* (Y.K. 2018; 73) (Ehtimol, uning xayolida nimadir bordir yoki bosh og'rig'i kuchaygandir; nima bo'lsa ham u kunduzi boshini quyiga solgan tun malikasi gulidek jim o'tirardi) (K.M) deb beriladi.

R.M. tarjimasida esa: *"...she was impenetrable, like a flower whose tender petals cling to each other in the cold night, refusing to reveal its secrets."* (R.M. 2018; 79) (Mayin gulbarglari bir-biriga yopishgan gul kabi; qo'shimcha izohli tarjima- K.M)

Yuqorida keltirilgan "namozshomgul kabi" birikmasi I.To'xtasinovning tarjimasida ushbu birikma "like a nightmare flower" (qo'rqinchli guldek) deb beriladi. Bunda ko'chma ma'no, ya'ni o'xshatish leksik birligi orqali ma'no ko'chishi tasviriy ekvivalentlik yo'lida saqlanib qolingani biroq asliyat matnida nazarda tutilgan "tushkunlik, tundlik" tarjimada aks ettirilmagan, "yopiq edi" frazeologik birikmasi "her eyes were closed" (ko'zlari yumilgan) tarzida beriladi. Fikrimizcha, ushbu tarjima asliyat matnidagi farq qiladi, ya'ni asliyatdagi ko'chma ma'noda qo'llangan frazema tarjimada oddiy ma'noga aylanib qolgan, asliyat tarjimasida ifodalab berilmagan.

K.Yermakova esa ushbu birikma tarjimasini "like a Queen of the Night flower" (tun malikasi gulidek) deb beradi adekvatlik usulida. Queen of the Night flower tunda gullaydi yoki ochiladigan gul ekanini hisobga olsak, bunda mutarjim o'quvchiga tushunishi uchun oson bo'lgan mos sinonim shaklini berishga intilgan degan xulosa kelib chiqadi.

M.Riz tarjimasida esa o'xshatish leksik birligi saqlangan hamda adib nazarda tutgan "yopiq edi" ya'ni Kumushning xech narsa gapirmasligi, undagi tushkunlik kayfiyati tarjimada soda usulda, badiylashtirilmasdan, ochiq oydin ifoda etilgan. Bunda tarjimon kitobxonga tushunarli bo'lishi uchun *refusing to reveal its secrets- sirlarini oshkor etishni istamadi* jumlasini qo'shimcha qiladi.

2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki ob'ekt:

Asliyat matni: *"Darbozadan ichkariga kirilgach, saroy kabi bir havli, ayvonda o'n beshka yaqin yarog'liq yigitlar to'nkalaiddan gulxan solib, isinib o'tturmakda edilar"* (O'tkan kunlar. 2009; 69) Ayvonida o'n beshga yaqin qurolli yigitlar to'nkalaridan gulxan yoqib, isinib o'tirgan ushbu saroyga Homid qo'rboshi bilan uchrashib, unga Marg'ilondan kelgan "isyonchi" Otabek haqida chaqimchilik qilishga keladi. Mazkur parchada qo'llangan "saroy kabi bir havli" birikmasi o'xshatish tasvir vositasi orqali yasalgan. Ushbu o'rinda muallif hovlining kattaligi hamda xonalarning ko'pligini saroyga qiyos qilmoqda. Bunday tasvir o'quvchi ongida hashamatli, barcha sharoitlari mavjud bo'lgan uy ekanligini anglash maqsadida ifoda etilgan.

I.To'xtasinov tarjimasida bu tasvir quyidagicha aks etgan: *"Inside there was a yard like a palace, about fifteen young men were sitting on the veranda making fire and getting warmed around it."* (T.I. 2017; 67) (Ichkarida saroydek hovli bor edi, o'n beshga yaqin yigitlar ayvonda o't qo'yib, atrofida isinishardi) (K.M) deb beriladi.

Parchada qo'llangan "saroy kabi bir havli" birikmasi I.To'xtasinov tarjimasida "a yard like a palace" (saroy kabi bir hovli) deb aynan beriladi. Bunda o'zbek tarjimonlari asliyat matnida keltirilgan

⁸⁷ Maxmudov N. O'xshatishlar- obrazli tafakkur mahsuli. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. – №3. – B.19-24

birikma tarjimasini natijama usulida, ya'ni, so'zma-so'z o'g'irib, muvaffaqiyatli tarjima matniga erishadi.

Y.K. tarjimasida: *"Passing through the gateway, the visitor entered the courtyard; with fifteen armed young men warming themselves by a fire in the ayvan, it was **reminiscent of caravanserais**."* (Y.K. 2018; 66) (Darvozadan o'tib, mehmon karvonsaroyini eslatadigan hovliga kirdi; Ayvonda o'n beshta qurolli yigit o'choqda isinayotgandi.) (K.M) tarzida beriladi.

R.M. tarjimasida esa: *"He passed through the gate into an **enormous yard** where approximately fifteen armed men were sitting in a circle, heating themselves at a fire that was devouring a tree stump."* (R.M. 2018; 130) (haybatli hovli- K.M)

K.Yermakova esa "reminiscent of caravanserais" (karvonsaroyini eslatuvchi) tarzida beriladi. Bunda mutarjim biroz chalkashlikka yo'l qo'yadi, natijada o'xshatish ifoda vositasi tarjimada aks etmaydi. K.Yermakova tarjimasida, shu parcha misolida aytadigan bo'lsak, lingvokulturologik xususiyatlar borasida g'alizlik ko'zga tashlanadi. Asliyat matnida "to'nkalardan gulxan solib, isinib o'turmakda edilar" (O'tkan kunlar, 2009, 69) jumlasida qo'llangan "solib" leksik birligiga judayam ahamiyat qaratib, xijjalab tarjima qilgani natijasida "o'choqda isinmoq" fe'lini keltiradi. (O'tinni o'choq ichiga solinishini nazarda tutgan) Biroq muallif eski o'zbek lahjasida "gulxan yoqib"ni "gulxan solib" tarzida qo'llagan. Gulxanni esa atrofida isiniladi. Bunda o'zbek tarjimonlari T.I. "making fire and getting warmed around it" (olov yoqib, atrofida isinishardi) tarzida asliyatga muqobil tarjima qilib to'g'ri talqin qilgan.

Asliyat matnida keltirilgan "saroy kabi bir hovli" o'xshatishi M.Riz tomonidan adekvatlik usulida *enormous yard- haybatli hovli* deb beriladi, tarjima muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi. Masalan, asliyat matnida: *"Natijada ersa so'zi - so'z, kengashi - kengash bo'lg'anlar shu uch-to'rtta kalla buzarlari bo'lib, bizga o'xshag'anlarning darajamiz **yosh boladek** aldanish ekan..."* (O'tkan kunlar, 2009, 346) Ushbu jumlada qo'llangan "yosh boladek aldanish" birikmasi belgili o'xshatishga (yosh- voyaga yetmagan bola) misol bo'ladi. "Yosh boladek aldanish" aslida "osonlikcha aldanish" birikmasi o'rnida qo'llangan. Bu misolda aldanish-ob'ekt, boladek-etalon, belgi-bolaning yoshi kichikligidadir. Ushbu jumla tarjimalarda quyidagicha o'z aksini topgan:

T.I. tarjimasida: *"However, it was me who delivered him from Musulmankul's calamity. In result these cut-throat dregs' words, opinions and their wish is law and what we serve is to be tricked **like a boy**."* (T.I. 2017; 317) (Biroq uni Musulmonkul musibatidan men qutqarganman. Oqibatda bu gapirishga arzimaganlarning so'zlari, fikrlari va ularning xohishi qonun va biz xizmat qiladigan narsa boladek aldanib qolishdir.) (K.M) tarzida beriladi. Mazkur birikma T.I. tarjimasida "to be tricked like a boy" (boladek aldanish) deb beriladi. Bunda o'zbek tarjimonlari so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanib, muvaffaqiyatli tarjima matniga erishganlar hamda o'xshatish leksik birligi ifolagan birikma tarjimada aks ettirilgan.

Y.K. tarjimasida: *"Yet I was among the few who saved him from the dastardly Musulman Kul. In the end, everything was decided by a couple of boozing troublemakers, and we were hoodwinked **like puppies**."* (Y.K. 2018; 291) (Oxir-oqibat, hamma narsani bir-ikkita ichuvchi tartibbuzarlari hal qilishdi va biz kuchuk boladek ovora bo'ldik.) (K.M) deb tarjima qilinadi. K.Yermakova tarjimasida "we were hoodwinked like puppies" (kuchuklardek aldandik) tarzida adekvatlik yo'li bilan qayta tiklanadi. Shu nuqtada prof. M.Xolbekov fikrlarini keltirish joiz deb o'ylaymiz: "Tarjimon ham ijodkor, tarjima jarayonida, avvalo, u ham yozuvchi kabi ona tilida fikrlaydi, tarjimasiga ona tilida sayqal beradi"⁸⁸ Bu fikrdan shuni anglash mumkinki mutarjim ushbu o'xshatishni ingliz tilida "like puppies" (kuchuk boladek) tarzida keltirishi uning ijodi, o'quvchiga balki shunisi ta'sirliroq bo'lishi mumkin. Chunki kuchukni qanchalik soddalik va ishonuvchanlik belgisida ham ifodalash mumkin.

R.M. tarjimasida esa: *"The council of those who engage in obfuscation is well received. The learned and wise are deceived **as if they were small, naive children**"* (R.M. 2018; 526) (xuddi yosh, go'l bolalardek- K.M)

M.Riz tarjimasida adib nazarda tutgan "yopiq birikma"lar osonlashtirilib, har bir detal tarjimon e'tiboridan chetda qolmagan. Buni Yusufbek xojining "bizga o'xshaganlarning darajamiz" jumlasini, tarjimada *the learned and wise are- olim va donishmandlar* tarzida qayta tiklanishida ko'rish mumkin.

⁸⁸ Холбеков М. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Тошкент: Наврўз, 2015. – Б.60.

TILSHUNOSLIK

Bunda tarjimon xojidek zakiiy va donishmand kishilarni e'tirof qiladi. Ushbu sifatlashga boshqa ikki tarjima matnida ham ahamiyat qaratilmaganini inobatga olib, M.Riz tarjimasi to'liq, asliyatga monand deyish mumkin.

4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi⁸⁹. Bu turni parchada o'z aksini topganligiga guvoh bo'lamiz: *"Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib jonso'z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi."* (O'tkan kunlar. 2009; 31) Muallif ushbu jumlada qo'llagan tenglashtirish aslida "qiz qiyofasidagi farishta" birikmasini anglatib, o'xshatish leksik birligi orqali ko'chma ma'no ifodalagan va gapning stilistik bo'yoqdorligini oshirganligi bilan diqqatga sazovordir. "Qiz suratida ko'ringan malak" birikmasi aslida "Kumushning tabiat tomonidan yaratilgan benihoya go'zalligi" ma'nosini ifodalab kelmoqda. Ushbu parchada Kumushbibi-ob'ekt, malak-obraz, qiz suratida ko'ringan-belgisidir. Belgi ob'ekt va obrazlar bilan alohida bir sintaktik aloqani tashkil etadi. Tashqi tomondan qaraganda, farishta bilan qiz o'rtasida hech qanday aloqa yo'qdek tuyuladi. Lekin yozuvchi Kumushbibining go'zalligini asosiy o'xshashlik belgisi qilib olgan. Belgi (qiz suratida ko'ringan) asosida ikkita predmet qiyoslanmoqda. Agar "belgi" (qiz suratida ko'ringan) bo'lmasa, Kumush bilan malak o'rtasida o'xshashlik bo'lmas edi. Bu o'xshatish tarjimalarda ham o'zining ifodasini topgan.

T.I. tarjimasida: *"Her face and disheveled hair, gave a charming view of her entire appearance as if it was a framed picture. This Angel, embodied in the image of the girl was Qutidor's daughter- Kumush Bibi."* (T.I. 2017; 30) (Uning yuzi va taralgan sochlari uning butun qiyofasini go'yo hoshiyaga o'ralgan suratdek maftunkor ko'rinishga olib keldi. Qiz timsolida gavdalangan bu farishta Qutidorning qizi Kumushbibi edi- KM)

Y.K.tarjimasida: *"The disheveled ringlets framing her face lend her a bewitching air. This angel in the form of a girl is Kutidor's daughter, Kumush- bibi."* (Y.K. 2018; 32) (Uning yuzini o'rab turgan chigal halqalar unga jozibali havo bag'ishlaydi. Qiz qiyofasidagi bu farishta Qutidorning qizi Kumushbibidir) (K.M) qayta tiklanadi.

R.M. tarjimasida esa ushbu o'xshatish: *"This belle, the very picture of a maiden angel, is the daughter of Qutidor-Kumush Bibi."* (R.M. 2018; 77) (farishta suratidagi nozanin, sohubjamol- K.M)

Asliyatda keltirilgan birikma I.To'xtasinov tarjimasida "Angel, embodied in the image of the girl" (qiz timsolida gavdalangan farishta) deb beriladi. Bunda o'zbek tarjimonlari tarjimini muvaffaqiyatli amalga oshirgan.

K.Yermakova tarjimasida "angel in the form of a girl" (qiz qiyofasidagi farishta) tarzida beriladi. Bunda K.Yermakova ham o'zbek tarjimonlari tanlagan usuldan, ya'ni so'zma-so'z tarjima qilish usulidan foydalanadi. Mutarjim so'z tanlash borasida o'zbek tarjimonlaridan ustunroq ko'rinadi, biroq parchaning birinchi jumlasiga e'tibor qaratsak tarjimadagi g'alizlik namoyon bo'ladi. Asliyatdagi "silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib jonso'z bir suratka kirgizdi" jumlasini K.Yermakova tarjimasida "She disheveled ringlets framing her face lend her a bewitching air" (Uning yuzini o'rab turgan chigal halqalar unga jozibali havo bag'ishlaydi) tarzida beriladi. Bunda mutarjim asliyatning tub mohiyatiga yetmagan ko'rinadi, natijada tarjimada chalkashlik yuzaga kelgan.

Asliyat matnida keltirilgan ushbu o'xshatish M.Riz tomonidan ham so'zma-so'z tarjima etilgan hamda *belle-nozanin, maiden- qiz* sifatlashlari tarjimon tomonidan izohli ta'kidlanadi. Ushbu izohlar o'xshatilayotgan personajga yanada joziba bag'ishlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'xshatishlarning hosil bo'lishi zahirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga bo'lgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi. Tilimizda nutqning turli ko'rinishlarida, xususan, og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchrab turadigan "muzdek suv", "qo'yday yuvosh", "toshdek qattiq", "paxtaday yumshoq", "tulkiday ayyor" kabi bir qator o'xshatishlar nutqimizda ko'p qo'llanilganligi, tasvir obektining ma'lum bir sifatining izohlashi bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular bugungi kunda an'anaviy o'xshatishlar hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, obrazlilik hosil

⁸⁹ Қобулжонова Г. Метафора ва ўхшатиш//Ўзбек тили ва адабиёти. – № 5. – Тошкент, 1999. –Б.53

qiluvchi vositalar hisobiga badiiy qimmatlik kasb etadi. O'xshatish bilan tenglashtirish(mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin) o'rtasida biroz nomutanosiblik kuzatiladi.

"Tenglashtirish bilan o'xshatish orasida juda yaqin bog'lanish bor. Shuning uchun ma'lum bir grammatik vosita yordamida tuzilgan konstruktsiya o'rni bilan tenglashtirish, o'rni bilan o'xshatishni ifodalaydi: *otning kallasiday qulf*- tenglashtirish; *shishadek osmon*- o'xshatish. Bu hol avvalo tenglashtirish va o'xshatish tushunchalarining yaqinligi tufaylidir. Bundan tenglashtirish va o'xshatish iboralarini qanday farqlash mumkin bo'ladi, degan savol tug'ilishi tabiiydir."⁹⁰ Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qiyoslanayotgan narsa belgi, hodisa o'lcham, miqdor asosida bo'lsa, tenglashtirish (piyoladay-piyoladay olmalar); agar narsa, belgi, hodisalar ma'lum obraz yoki tarz belgi asosida qiyoslansa, o'xshatish hosil bo'ladi. Ayrim hollarda mana shu narsani aniqlash (o'lcham, miqdor asosidami yoki obraz tarz- belgi asosidami?) bir oz qiyin bo'ladi. Bu hol ham ular o'rtasidagi (o'xshatish va tenglashtirish) yaqinlikning juda ham zichligini ko'rsatadi.

jadval

O'XSHATISH	Tarkibi	o'xshatiladi- gan narsa yoki sub'ekt	unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki ob'ekt:	o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi	o'xshatishning formal ko'rsatkichi
	asliyat matnida	namozshomgul kabi	saroy kabi bir havli	yosh boladek aldanish	qiz suratida ko'ringan malak
	I.To'xtasinov va boshqalar	like a nightmare flower	a yard like a palace	be tricked like a boy	angel, embodied in the image of the girl
	K.Yermakova	like a Queen of the Night flower	reminiscent of caravanserai	hoodwinked like puppies	angel in the form of a girl
	M.Riz tarjimasida	like a flower whose tender petals cling to each other	enormous yard	as if they were small, naive children	very picture of a maiden angel

XULOSA

Asliyatning badiiy-estetik xususiyatini va u yaratilgan davr bo'yog'ini, kahramonlar ijobiy va salbiy jihatlarini ijodiy qayta yaratish uchun tarjimon nafaqat mahorat, iste'dod va boy tajriba sohibi bo'lishi, balki badiiy tarjima amaliyoti dalillari asosida vujudga kelgan nazariy bilimlar bilan puxta qurollangan filolog olim sifatida faoliyat ko'rsata bilishi ham lozimdir. Tarjimonlar M.Riz hamda K.Yermakovalar romanni tarjima qilish jarayonida yuqoridagi mezonlarni to'liq xis etgan holda tarjima matnlarida asliyatdagi tasviriy ifoda vositalarni aks ettirishga harakat qilgan.

"O'tkan kunlar" romanida pragmatik uyg'unlikka erishish uchun tarjimondan asliyat matnida ifodalangan har bir holat va narsani yaxshi bilishi, ya'ni chuqur ekstralingvistik bilimga ega bo'lishi, shuningdek, badiiy matnda tagma'no hosil qiluvchi til birliklarini to'liq anglash hamda eksplitsit va implitsit tarjima usullarini yaxshi o'zlashtirish talab qilinadi. Tarjimonlarning tasviriy vositalarni aks ettirish davomida ushbu mezonlarga monand ish tutganliklarini guvohi bo'ldik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пирс Ч.С. Принципы философии. – Санкт Петербург, 2001. – С.313
2. Моррис Ч.У. Основания теории знаков // Семиотика: хрестоматия: учеб.метод. модуль / под ред. Л.Л. Федоровой. – М., 2005. – С. 45–98.
3. Yermakova K. The Days Gone by. – England, 2018. –P. 60
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Т., 2008. – Б. 59-241
5. Mey J.L. Pragmatics: An Introduction. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2001. – P.148.
6. Reese M. Bygone Days. – The United States of America, 2018. –P. 60
7. Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Pragmatic Competence // The Modern Language Journal. Vol. 86, № 3, 2002. – P. 328-332.
8. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. –P. 9-236.

⁹⁰ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. –Тошкент, 1987. –Б.59

TILSHUNOSLIK

9. Karimov M. The etiquette and the literary description of character used in the novel "Days Gone By"//Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451. – 2022. – P. 35336-35344.
10. Tukhtasinov I. The Days Gone by. – Tashkent, 2017. –P. 61
11. Умарходжаев М. Основы фразеологии. Дис... д-ра филол. наук. – Москва, 1981. – С. 77-100
12. Karimov M. Specific Features of English literature translations// 6th International Multidisciplinary Scientific Conference on Innovative Technology. – San Francisco, USA, 2021. –P. 12
13. Karimov M. The usage of some stylistic figures in the novel "Days Gone By" (Tropes, Archaisms, Historisms, Dialects)//НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ 2021 махсус сон. –Namangan , 2017. – P. 261-264
14. Karimov M.M. The Role of Synecdoche and Irony Used in Abdulla Kadiri's Novel "The Days Gone By". Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT – Volume 3 No. 2. – Spain, 2022. – P.74-76.
15. Karimov M.M. Some Artistic Imagery Usage in the Translations of the Novel "The Days Gone By". Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT – Volume 3. – №2. – Spain, 2022. – P.71-73.